



INSON KAPITALINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNING MINTAQA IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI O'RNINI

THE ECONOMIC ESSENCE OF HUMAN CAPITAL AND ITS ROLE IN REGIONAL SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT

¹Ismailova Gulruh
Faxriddinova

¹Ma'mun universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada inson kapitalining iqtisodiy mazmuni hamda uning mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi roli nazariy va empirik asosda tahlil etiladi. Klassik va zamonaviy yondashuvlar umumlashtirilib, O'zbekiston bo'yicha makroiqtisodiy ikkilamchi statistik ma'lumotlar asosida tahlil o'tkazildi. Natijalar inson kapitalining iqtisodiy o'sish, strukturaviy modernizatsiya va mintaqaviy barqarorlikka sezilarli ta'sirini ko'rsatdi. Ta'lim qamrovi, sog'liq ko'rsatkichlari va inson kapitali indeksi dinamikasining aholi jon boshiga YaIM bilan uzviy bog'liqligi aniqlandi. Shu bilan birga, innovatsion infratuzilmaning sust rivojlanganligi inson kapitalining iqtisodiy samaradorligini cheklovchi omil sifatida baholandi hamda tegishli amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Eng. - This article provides a theoretical and empirical analysis of the economic essence of human capital and its role in regional socio-economic development. Classical and modern approaches to human capital theory are systematized, and an analysis is conducted using secondary macroeconomic statistical data for Uzbekistan. The findings confirm the significant impact of human capital on economic growth, structural modernization, and regional sustainability. A close relationship is identified between the dynamics of educational attainment, health indicators, and the human capital index, and GDP per capita trends. At the same time, the underdevelopment of innovation infrastructure is assessed as a constraining factor limiting the full economic returns of human capital, leading to the formulation of practical recommendations.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ inson kapitali, mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiy o'sish, human capital index, innovatsiya, sog'liqni saqlash, ta'lim.

❖ human capital, regional development, economic growth, human capital index, innovation, healthcare, education.

Kirish.

Inson kapitali — bu inson faoliyati davomida maqsadga mos ravishda foydalaniluvchi va shaxsiy daromadlarning o'sishiga olib keluvchi, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va hudud taraqqiyotining o'sishiga ko'maklashuvchi,

investitsiyalar natijasida shakllangan va to'plangan qobiliyatlar, ko'nikmalar, salomatlik darajasi hamda axloqiy fazilatlar jamlanmasidir [1]. Ushbu tushunchaning iqtisodiy mazmuni insonni nafaqat mehnat resursi, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi strategik "kapital" sifatida

baholashga asoslanadi. Klassik iqtisodchi Adam Smit o'zining 1776-yildagi asarida ta'lim olgan insonni "qimmatbaho mashina"ga qiyoslab, unga sarflangan xarajatlarni kelajakda foyda keltiruvchi sarmoya deb atagan [2]. Zamonaviy inson kapitali nazariyasi XX asrning 60-yillarida Teodore Shults va Gari Bekker tomonidan tizimlashtirilgan bo'lib, ular ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan xarajatlarni jamiyat farovonligining asosi ekanini isbotlab berdilar [3].

Mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai nazaridan inson kapitali hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning fundamental drayveri hisoblanadi. Mintaqaviy inson kapitali o'z ichiga oltita asosiy komponentni qamrab oladi: professionallik darajasi, ta'lim darajasi, ilmiy salohiyat, innovatsion rivojlanish, sog'liqni saqlash va madaniyat [4]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlatning sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirgan investitsiyalari mintaqaviy iqtisodiyotning tashqi zarbalarga bardosh berish qobiliyatini, ya'ni iqtisodiy barqarorlikni (resilience) sezilarli darajada kuchaytiradi. Bunda salomatlik kapitali "katalizator" vazifasini o'tab, mehnat unumdorligini oshiradi va kasallik tufayli ishchi kuchining yo'qotilishini kamaytiradi.

Shuningdek, inson kapitali mintaqaviy sanoat tarkibini modernizatsiya qilish va texnologik yangilanishni jadallashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Malakali ishchi kuchi yangi texnologiyalarni tezroq o'zlashtiradi va hududning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Mintaqalarda fan, davlat va biznes hamkorligini ta'minlovchi "uchlamchi spiral" (triple helix) modelini joriy etish orqali universitetlarning hududiy iqtisodiyotdagi o'rnini kuchaytirish barqaror rivojlanishning muhim shartidir.

O'zbekiston Respublikasida inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, milliy boylik tarkibida uning ulushi 62 foizni tashkil etadi [5]. 2030-yilgacha bo'lgan davrda xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimlarini rivojlantirish

konsepsiyalari mintaqalarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va innovatsion iqtisodiyotga o'tishning huquqiy asosini yaratdi. Biroq, inson kapitali nazariyasiga nisbatan tanqidiy yondashuvlar ham mavjud bo'lib, masalan, marksistik tanqidga ko'ra, bu tushuncha ishchi kuchi ekspluatatsiyasini "kapital" niqobi ostida yashirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tizimli to'siqlar, xususan, gender va irqiy kamsitishlar mintaqa iqtisodiyotida inson kapitalidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Umuman olganda, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi bevosita inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning hajmi, sifati va ularning hududiy mehnat bozori talablariga muvofiqligiga bog'liqdir. Bu esa bevosita tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Inson kapitali nazariyasining iqtisodiy tafakkur tarixidagi rivojlanishi va uning mintaqaviy taraqqiyotdagi o'rni keng qamrovli ilmiy izlanishlar obyekti bo'lib kelmoqda. Ushbu tushunchaning nazariy ildizlari klassik iqtisodchi Adam Smitning 1776-yilda nashr etilgan "Xalqlar boyligi" asariga borib taqaladi. U malakali ishchini ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi "qimmatbaho mashina"ga qiyoslagan va ta'limga sarflangan xarajatlarni kelajakda teng qiymatli foyda keltiruvchi investitsiya deb hisoblagan [6]. Keyinchalik Jon Styuart Mill va Alfred Marshall kabi iqtisodchilar ushbu tushunchani insonning bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlari majmuasi sifatida boyitganlar.

Inson kapitali nazariyasining mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi XX asrning 50-60 yillarida Chikago maktabi namoyondalari — Teodore Shults, Gari Bekker va Jeykob Minser nomi bilan bog'liq. Shults inson kapitalini iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida asoslab bergan bo'lsa, Bekker insonning ta'lim va sog'lig'iga kiritilgan sarmoyalarni oqilona tanlov va iqtisodiy

samaradorlik nuqtai nazaridan matematik modellar yordamida tahlil qildi. Jeykob Minser esa inson kapitali va shaxsiy daromadlar taqsimoti o'rtasidagi bog'liqlikni isbotlovchi fundamental empirik tadqiqotlarni amalga oshirdi, ya'ni inson kapitali va shaxsiy daromadlar taqsimoti o'rtasidagi matematik bog'liqlikni ishlab chiqdi [7].

Inson kapitalining iqtisodiy o'sishdagi roli zamonaviy iqtisodiy modellarda ikki xil yondashuv orqali tahlil qilinadi [8]:

1. Neoklassik modellar (Solow-Swan modeli): Bunda inson kapitali jismoniy kapital bilan bir qatorda ishlab chiqarishning ekzogen omili sifatida qaraladi.

2. Endogen o'sish modellari (Romer, Lukas, Nelson-Phelps): Ushbu modellarda inson kapitali innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot (R&D) va ish jarayonida o'rganish (learning-by-doing) orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi ichki drayver sifatida talqin etiladi. Nelson va Phelps inson kapitalining yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va tarqatishdagi (technological diffusion) rolini alohida ta'kidlaganlar.

Mintaqaviy iqtisodiyot doirasida inson kapitalining hududiy barqarorlikka ta'siri bo'yicha Lev Mazelis va boshqa tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan konseptual modellar muhim ahamiyatga ega. Mazelis mintaqaviy inson kapitalini oltita asosiy guruhga bo'ladi: professionallik, ta'lim, ilmiy salohiyat, innovatsion rivojlanish, sog'liqni saqlash va madaniyat [9]. Empirik tadqiqotlar, xususan Guo, Tong va Yu tomonidan o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlatning sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirgan investitsiyalari mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni (economic resilience) sezilarli darajada kuchaytiradi. Shuningdek, inson kapitali sanoat tarkibini modernizatsiya qilishda va mintaqaning eksport salohiyatini oshirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi [10].

Samuel Bous va Herbert Gintis ta'kidlashicha, inson kapitali nazariyasi jamiyatdagi sinfiy ziddiyatlarni va hokimiyat

nomutanosibligini e'tiborsiz qoldiradi. So'nggi yillarda inson kapitali samaradorligi korporativ darajada ESG (Atrof-muhit, Ijtimoiy va Boshqaruv) standartlari bilan bog'lab o'rganilmoqda. Tadqiqotlar ESG ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan kompaniyalar inson kapitaliga sarmoya kiritishda yuqori samaradorlikka erishishini ko'rsatmoqda.

Mahalliy olim(a)lar, jumladan A. Abduvoxidov, M. Sharipova, Sh. Akramovalar o'z tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida inson kapitalining strategik ahamiyatini yoritib berganlar. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari aynan raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish orqali mintaqaviy rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson kapitali shunchaki iqtisodiy resurs emas, balki mintaqaning innovatsion salohiyati va ijtimoiy farovonligini ta'minlovchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy fenomendir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot inson kapitalining iqtisodiy mazmuni va uning O'zbekiston mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini aniqlashga qaratilgan bo'lib, nazariy va empirik yondashuvlar uyg'unligiga asoslanadi. Tadqiqotda inson kapitali nazariyasining klassik va zamonaviy konsepsiyalari tahlil qilinib, ular O'zbekiston sharoitiga mos ravishda umumlashtirildi.

Empirik qism ikkilamchi (secondary) statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirildi. Ma'lumotlar Jahon bankining World Development Indicators bazasi, Human Capital Index (2020), UNESCO, WHO va boshqa rasmiy xalqaro manbalardan olindi. Tahlil 2010–2022-yillar oralig'idagi ko'rsatkichlarni qamrab oldi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy ko'rsatkichlardan foydalanildi: aholi jon boshiga YaIM, iqtisodiy o'sish sur'ati, Human Capital Index, o'rtacha ta'lim yillari, oliy ta'lim

qamrovi, sog'liqni saqlash xarajatlari hamda ilmiy-tadqiqot (R&D) xarajatlari.

Tahlil jarayonida deskriptiv-statistik tahlil, qiyosiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llanildi. O'zbekiston ko'rsatkichlari o'rta daromadli davlatlar bilan solishtirildi hamda inson kapitali va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik baholandi.

Mazkur metodologiya inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishdagi rolini ilmiy asosda yoritish va empirik dalillar bilan mustahkamlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mazkur tadqiqot doirasida inson kapitalining O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni makroiqtisodiy ikkilamchi (secondary) statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Tahlil 2010–2022-yillar oralig'ini qamrab olib, Jahon bankining World Development Indicators bazasi, Human Capital Index (2020), UNESCO Institute for Statistics hamda WHO ma'lumotlariga tayandi. Tadqiqotning asosiy maqsadi inson kapitalining miqdoriy va sifat komponentlari bilan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdan iborat bo'ldi.

1-jadval

Inson kapitali va mintaqaviy rivojlanish tahlili*

Asosiy yo'nalishlar	Ko'rsatkichlar / Dinamika	Iqtisodiy ta'sirlar	Cheklovchi omillar	Tavsiyalar
Ta'lim	Ta'lim qamrovi, malaka darajasi	Ishchi kuchining samaradorligi, innovatsion salohiyat	Ta'lim sifati va infratuzilma yetarli emas	Ta'lim sifati oshirish, STEM yo'nalishlarini kengaytirish
Sog'liqni saqlash	Sog'liq ko'rsatkichlari, umr davomiyligi	Mehnat unumdorligi, barqaror iqtisodiy o'sish	Tibbiy xizmatlarning hududiy tafovutlari	Sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish
Inson kapitali indeksi	Dinamika va YaIM jon boshiga bog'liqligi	O'sish sur'atlari, strukturaviy modernizatsiya	Hududlar o'rtasida tengsizlik	Hududiy balansni ta'minlash
Innovatsion infratuzilma	Rivojlanish darajasi sust	Inson kapitalining samaradorligi cheklanadi	Innovatsion ekotizimning zaifligi	Innovatsion markazlar va texnoparklarni rivojlantirish
Mintaqaviy barqarorlik	Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar	Barqaror o'sish, ijtimoiy muvozanat	Resurslardan samarasiz foydalanish	Kompleks mintaqaviy strategiyalar ishlab chiqish

*Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Avvalo, O'zbekistonning inson kapitali umumiy darajasini baholash maqsadida Jahon bankining Human Capital Index (HCI) ko'rsatkichlari tahlil qilindi. 2020-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning HCI ko'rsatkichi 0.62 ni tashkil etadi (World Bank, 2020). Bu shuni anglatadiki, mamlakatda tug'ilgan bola to'liq ta'lim va sog'liq sharoitlarida erishishi mumkin bo'lgan mehnat unumdorligining 62 foiziga erishadi. Mazkur ko'rsatkich past o'rta daromadli mamlakatlar

o'rtacha darajasidan yuqori bo'lib, inson kapitalining milliy boylik tarkibidagi ulushi 60 foizdan ortiq ekanini ko'rsatadi (World Bank, 2018). Demak, iqtisodiy resurslar tarkibida inson kapitali O'zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim ko'rsatkichlari dinamikasi inson kapitalining miqdoriy o'sishini tasdiqlaydi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda o'rtacha o'qish yillari 11,6 yilni tashkil etadi, oliy ta'lim qamrovi esa 2016-yildagi 9 foizdan

2022-yilda 28 foizdan yuqori darajaga oshgan (UNESCO, 2022). Ushbu o'sish bilan parallel ravishda aholi jon boshiga YaIM 2010-yildagi 1 378 AQSh dollaridan 2022-yilda 2 255 AQSh dollariga yetgan (World Bank, 2023). Ya'ni o'n ikki yil davomida real iqtisodiy salohiyat sezilarli darajada kengaygan. Bu jarayon inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi musbat bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Biroq inson kapitalining iqtisodiy samaradorligi faqat ta'lim qamrovi bilan cheklanmaydi. Innovatsion salohiyatni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D) xarajatlari YaIMning 0.13–0.15 foizi atrofida qolmoqda (World Bank, 2022). Bu ko'rsatkich rivojlangan iqtisodiyotlar bilan solishtirganda ancha past bo'lib, inson kapitalining innovatsion kapitalga aylanish jarayoni hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2017-yildan keyingi iqtisodiy islohotlar davrida xizmatlar sektorining YaIMdagi ulushi 35 foizdan 40 foizdan yuqori darajaga oshgani kuzatilgan (World Bank, 2023). Bu strukturaviy transformatsiya jarayonida malakali ishchi kuchining ahamiyati ortib borayotganini anglatadi.

Sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari inson kapitalining sifat komponentini yanada aniqlashtiradi. WHO (2022) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda sog'liqni saqlash xarajatlari YaIMning 5,4 foizini tashkil etadi, o'rtacha umr davomiyligi esa 2010-yildagi 69,1 yoshdan 2022-yilda 71,7 yoshga oshgan. Umr davomiyligining ortishi mehnatga layoqatli aholining iqtisodiy faolligini uzaytiradi va ishlab chiqarish samaradorligini barqarorlashtiradi. Sog'liq ko'rsatkichlarining yaxshilanishi pandemiya davrida iqtisodiy tizimning barqarorligini saqlashda ham muhim omil bo'ldi.

Hududiy kesimdagi tahlil esa inson kapitalining notekis taqsimlanishini ko'rsatadi. Toshkent shahri va ayrim sanoatlashgan

hududlarda aholi jon boshiga YaIM respublika o'rtachasidan 2–2,5 baravar yuqori bo'lib, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarning asosiy qismi yirik shaharlarda jamlangan. Bu esa yuqori malakali ishchi kuchining hududiy markazlashuviga olib keladi. Natijada mintaqalararo iqtisodiy tafovut saqlanib qolmoqda, bu esa inson kapitali siyosatini hududiy muvozanat asosida yuritish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi empirik kuzatuvlar o'zaro bog'liq holda inson kapitalining O'zbekiston iqtisodiyotidagi uch bosqichli ta'sir mexanizmini ko'rsatadi. Birinchidan, ta'lim va sog'liq ko'rsatkichlarining yaxshilanishi mehnat unumdorligini oshiradi. Ikkinchidan, strukturaviy transformatsiya jarayonida xizmatlar va bilimga asoslangan tarmoqlarning kengayishi inson kapitali talabini oshiradi. Uchinchidan, innovatsion infratuzilma yetarli darajada rivojlanmaganligi inson kapitalining to'liq iqtisodiy samaraga aylanishini cheklaydi.

Shunday qilib, tahlil natijalari inson kapitali O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida markaziy determinant ekanini tasdiqlaydi. Uning miqdoriy o'sishi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan uyg'un ravishda kechmoqda, biroq sifat va innovatsion komponentni kuchaytirish orqali ushbu kapitalning samaradorligini yanada oshirish imkoniyati mavjud. Bu esa inson kapitalini nafaqat milliy boylikning asosiy tarkibiy qismi, balki mintaqaviy barqarorlik va uzoq muddatli raqobatbardoshlikning strategik omili sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Olingan natijalar inson kapitalining O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli ko'p qirrali va tizimli xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Analysis and Results bo'limida aniqlangan empirik ko'rsatkichlar inson kapitalining nafaqat iqtisodiy o'sish bilan korrelyatsion bog'liqligini, balki strukturaviy transformatsiya va mintaqaviy rivojlanish jarayonlarida faol determinant sifatida ishtirok etishini tasdiqlaydi. Shu jihatdan, mazkur

natijalar nazariy modellar bilan muvofiqlashgan holda izohlanishi zarur.

Birinchidan, inson kapitalining iqtisodiy o'sish bilan musbat bog'liqligi neoklassik ishlab chiqarish funksiyasidan ko'ra kengroq mazmunga ega ekanligi ko'rinadi. Agar Solow-Swan modelida inson kapitali ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida talqin qilinsa, olingan natijalar uning endogen o'sish nazariyalaridagi ichki mexanizm sifatidagi rolini ko'proq tasdiqlaydi. Ya'ni ta'lim qamrovining kengayishi va sog'liq ko'rsatkichlarining yaxshilanishi iqtisodiy o'sishga faqat hajmiy emas, balki sifat jihatdan ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, xizmatlar sektorining kengayishi va iqtisodiyotning bilimga asoslangan tarmoqlarga yo'nalishi inson kapitalining o'sish jarayonida katalizator rolini bajarayotganini anglatadi.

Ikkinchidan, inson kapitalining miqdoriy o'sishi bilan uning innovatsion samaradorligi o'rtasida ma'lum nomutanosiblik mavjudligi aniqlanadi. Oliy ta'lim qamrovining sezilarli oshishi iqtisodiy modernizatsiya uchun zarur shart bo'lsa-da, R&D xarajatlarining past darajada qolishi inson kapitalining ilmiy va texnologik kapitalga aylanish jarayoni yetarli tezlikda kechmayotganini ko'rsatadi. Bu esa inson kapitalining iqtisodiy samaradorligi institutsional va innovatsion infratuzilma bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi. Demak, inson kapitalining to'liq realizatsiyasi uchun universitet-ilmiy markaz-biznes integratsiyasi, ya'ni triple helix modelining amaliy mexanizmlari kuchaytirilishi zarur.

Uchinchidan, sog'liqni saqlash komponentining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Umr davomiyligining ortishi va sog'liq xarajatlarining barqaror darajada saqlanishi inson kapitalining sifat jihatini mustahkamlaydi. Bu esa iqtisodiy tizimning tashqi zarbalarga nisbatan chidamliligini oshiradi. Ayniqsa pandemiya davrida inson kapitalining salomatlik elementi iqtisodiy barqarorlikning muhim omiliga aylangani global tajribada ham kuzatildi. Shu nuqtai

nazardan, inson kapitalini faqat ta'lim orqali emas, balki kompleks sog'liq siyosati orqali rivojlantirish zarurligi ayon bo'ladi.

To'rtinchidan, hududiy tafovutlar masalasi inson kapitalining mintaqaviy boshqaruv mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Yirik shaharlarda inson kapitalining konsentratsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirsa-da, periferik hududlarda rivojlanish sur'atlarini cheklashi mumkin. Bu esa aglomeratsiya effektining ijobiy va salbiy tomonlari mavjudligini ko'rsatadi. Shunday sharoitda inson kapitalini hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish, ya'ni ta'lim va innovatsion infratuzilmani markazlashuvdan chiqarish strategik ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, natijalar inson kapitalining iqtisodiy mazmunini kengroq talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. U nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi omil, balki ijtimoiy barqarorlik, bandlik sifatini yaxshilash va inklyuziv rivojlanishni ta'minlovchi tizimli resursdir. Ta'lim qamrovining kengayishi va sog'liq ko'rsatkichlarining yaxshilanishi ijtimoiy farovonlikni mustahkamlash bilan birga, iqtisodiy tizimning uzoq muddatli barqarorligini ham ta'minlaydi.

Shu bilan birga, inson kapitalining iqtisodiy samaradorligi avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. Agar mehnat bozori talab va taklifi o'rtasida nomutanosiblik mavjud bo'lsa yoki yuqori malakali kadrlar uchun yetarli innovatsion muhit shakllanmagan bo'lsa, inson kapitali "foydalanilmagan resurs"ga aylanishi mumkin. Shu bois inson kapitali siyosati iqtisodiy struktura bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari inson kapitalining O'zbekiston iqtisodiyotida uch darajali funksiyani bajarishini ko'rsatadi: birinchidan, u iqtisodiy o'sishning bazaviy omili; ikkinchidan, strukturaviy modernizatsiya va innovatsion transformatsiyaning drayveri; uchinchidan,

ijtimoiy barqarorlik va hududiy rivojlanishning institutsional asosidir. Shunday qilib, inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi ta'lim, sog'liqni saqlash, ilmiy-tadqiqot faoliyati va hududiy siyosat bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirilgandagina uning iqtisodiy mazmuni to'liq namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqot natijalari, nazariy yondashuvlar hamda O'zbekiston misolida amalga oshirilgan tahlillar asosida inson kapitalining mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni bo'yicha bir qator ilmiy xulosalarga kelindi hamda amaliy ahamiyatga ega takliflar ishlab chiqildi.

Avvalo, tadqiqot natijalari inson kapitali O'zbekiston iqtisodiyotida strategik resurs sifatida shakllanib borayotganini ko'rsatdi. Ta'lim qamrovining kengayishi, o'rtacha o'qish yillarining ortishi va sog'liq ko'rsatkichlarining yaxshilanishi iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Bu esa inson kapitali ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, inson kapitalining miqdoriy o'sishi uning to'liq iqtisodiy natijaga aylanishi uchun yetarli emasligi aniqlandi. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat darajasining pastligi inson kapitalining yuqori qo'shimcha qiymat yaratish salohiyatini to'liq ishga solishga to'sqinlik qilmoqda.

Shuningdek, inson kapitalining sog'liq komponenti iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil ekanligi aniqlandi. Umr davomiyligining ortishi va sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi mehnat resurslarining uzoq muddatli samaradorligini oshiradi hamda iqtisodiy tizimning tashqi zarbalarga nisbatan chidamliligini kuchaytiradi. Bu inson kapitalini rivojlantirishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Hududiy tahlillar esa inson kapitalining notekis taqsimlanishi mintaqalararo iqtisodiy tafovutni saqlab qolayotganini ko'rsatdi. Yirik

shaharlarda ta'lim va innovatsion infratuzilmaning konsentratsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirayotgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda rivojlanish imkoniyatlari cheklanishi mumkin. Shu bois inson kapitalini hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ilmiy xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

- ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga ajratiladigan mablag'larni bosqichma-bosqich oshirish hamda R&D xarajatlarini sezilarli darajada ko'paytirish;

- universitet, ilmiy markaz va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini soddalashtirish;

- oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limini hududlar kesimida kengaytirish, ayniqsa zamonaviy texnologiyalar va muhandislik yo'nalishlariga ustuvor ahamiyat berish;

- ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish va dual ta'lim elementlarini keng joriy etish;

- sog'liqni saqlash tizimida profilaktika va birlamchi tibbiy xizmatlarni kuchaytirish orqali mehnatga layoqatli aholi salomatligini yaxshilash;

- hududlarda yuqori malakali mutaxassislarni rag'batlantirish mexanizmlarini (ijtimoiy paketlar, imtiyozlar, infratuzilma qo'llab-quvvatlovi) kengaytirish;

- inson kapitalini baholashning milliy va hududiy indikatorlar tizimini ishlab chiqish hamda muntazam monitoring mexanizmini joriy etish.

Umuman olganda, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan izchil va muvofiqlashtirilgan siyosat O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlash, hududiy nomutanosiblikni kamaytirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aissa, S., & Reghioui, A. (2024). *Evolution of Human Capital: From Notion to Conceptualization*. *Revue Internationale des Sciences de Gestion*, 7(3).
2. Mazelis, L. S., et al. (2018). *A Conceptual Model of the Regional Human Capital Development*. *ITJEMAST*.
3. Schultz T. W. *Investment in human capital //The American economic review*. – 1961. – T. 51. – №. 1. – P. 1-17.
4. Thananayagam, S. P. (2025). *Deconstructing Human Capital Theory: The Silenced Narratives of Immigrant Women of Colour*. University of Toronto.
5. Abduvoxidov, A. A., & Kamilova, S. M. (2023). *Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini tadqiq etishdagi yondashuvlar*. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(2).
6. Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations //Readings in economic sociology*. – 2002. – P. 6-17.
7. Le Chapelain, C. et Matéos, S. (2020). *Schultz et le capital humain: une trajectoire intellectuelle*. *Revue d'économie politique*. 130(1), 5-25. <https://doi.org/10.3917/redp.301.0005>
8. Aminuddin Anwar *Peran modal manusia terhadap pertumbuhan ekonomi regional di jawa*. *Jurnal Economia*, Volume 13, Nomor 1, April 2017.
9. Lev S. Mazelis; Kirill I. Lavrenyuk; Andrei A. Krasko; Olga N. Zagudaeva. (2018) *A CONCEPTUAL MODEL OF THE REGIONAL HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT*. *International Transaction Journal of Engineering, Management, & Applied Sciences & Technologies*, 9(5), 477-494. 10.14456/itjemast.2018.44.